

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**TO‘RAYEV SHERZOD BAXODIROVICH**

**ALIFATIK KARBON KISLOTALARNING FTALIMIDOALKIL  
EFIRLARI SINTEZI VA XOSSALARI**

**02.00.03 – Organik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarejasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
chemical sciences**

**To‘raev Sherzod Bahodirovich**

Alifatik karbon kislotalarning ftalimidoalkil efirlari sintezi va  
xossalari..... 3

**Тураев Шерзод Баходирович**

Синтез и свойства фталимидаалкиловых эфиров алифатических  
карбоновых кислот..... 21

**Turaev Sherzod**

Synthesis and properties of phthalimidoalkyl esters of aliphatic  
carboxylic acids..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 45

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**TO‘RAYEV SHERZOD BAXODIROVICH**

**ALIFATIK KARBON KISLOTALARNING FTALIMIDOALKIL  
EFIRLARI SINTEZI VA XOSSALARI**

**02.00.03 – Organik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PHD/K361 raqam bilan ro‘yxatga olingan**

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.ik-kimyo.nuuz.uz](http://www.ik-kimyo.nuuz.uz)) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Yuldasheva Muhabbat Razzoqberdievna</b> kimyo fanlari doktori, dotsent
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Maxsumov Abdulhamid Gofurovich</b> kimyo fanlari doktori, professor <b>Jo‘raqulov Sherzod Niyatqobulovich</b> kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Toshkent farmatsevtika institute</b>

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019K.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «18» aprel soat 13<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel: (998 71) 227-12-24, faks (998 71) 246-53-21; 246-02-24. e-mail: chem0102@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (59 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel: (99871) 227-12-24, faks (998 71) 246-53-21; 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « 6 » aprel kuni tarqatildi.

(2023 yil « 6 » apreldagi 5 raqamli reestr bayonnomasi).

**Z. A. Smanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, k.f.d., professor

**M. A. Mahkamov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, k.f.d., professor

**A. K. Abdushukurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar  
raisi, k.f.d., professor

## Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyo miqyosida alifatik karbon kislota hosilalari oziq-ovqat sanoatida, qishloq xo'jaligida, farmatsevtika sohasida turli xil preparatlar olishda qo'llaniladi. Xususan, alifatik karbon kislotalarining alkilimid hosilalaridan o'smaga, yallig'lanishga qarshi, og'riq qoldiruvchi dori vositalari, antioksidantlar, bo'yoqlar va qishloq xo'jaligi uchun muhim birikmalar olingan. Bunday birikmalarni yaratish va ularni olish usullarini takomillashtirish kimyo sanoatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda karbon kislotalarning murakkab efirlarini sintez qilish usullarini takomillashtirish, yangi turdagi katalizatorlar - mis sulfamin kislotalar, L-prolin, seziy karbonat, Lyuis kislotalarini qo'llash orqali mahsulot unumini oshirish ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu jarayonda boradigan qo'shimcha reaksiyalarning oldini olish maqsadida, karbon kislotalarning tuzlaridan foydalanish va bimolekulyar reaksiyalar uchun erituvchi tanlash muhimligi aniqlangan. Bundan tashqari faolligi past bo'lgan karbon kislotalarning murakkab efirlarini olishda fazalararo kataliz usulida katalizator sifatida kraun efirlarini qo'llash va mahsulot unumini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim va sanoatlashtirishning uzviy bog'liqligini ta'minlash, farmatsevtika sanoatini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, mahalliy xomashyo asosida kimyoviy zavodlar va agrar soha uchun import o'rini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish borasida tabiiy va sintetik organik moddalar olish bo'yicha muhim natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida<sup>1</sup> "Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish" vazifalari belgilab berilgan. Bu borada galogen almashgan sirka kislotalari va ularning tuzlarini, dekan, miristin, palmitin, stearin kislotalarining murakkab efirlarini olishda reaksiyaning yo'nalishini belgilab beruvchi yangi katalizatorlar qo'llash va reaksiya mahsuldorligini oshirish usullarini aniqlash, zararli mikroorganizmlarga qarshi faollik ko'rsatuvchi birikmalarni olishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni, 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805 son "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi va 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884 son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son « 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII «Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalari» ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Dunyoning koʻplab rivojlangan davlatlarida karbon kislotalarni amidalkillash reaksiyalari asosidagi izlanishlar jadal olib borilmoqda. Xususan, xorijlik olimlar- A.Homsi, A.Kasideh ftal kislotasining turli xil aminokislotalari bilan reaksiyalarini oʻrgangan. M.Zahran, Y.G.Abdin, A.Usmon, Amira Gamal-Eldin, Roba Talat, Erik Pedersen bir qator biologik muhim karbon kislotalar bilan N-xlormetilftalimid va N-(2-brometil) ftalimid oʻrtasidagi reaksiyalarni tadqiq qilishgan. Sameera Senaveera, Kaiti, Jon Tunge tomonidan alifatik karbon kislotalarining dekarboksillash reaksiyalari tadqiq qilingan.

Respublikamizda bu yoʻnalishdagi ishlarning rivojiga I.P.Sukervanik, A.R.Abdurasuleva, N.G.Sidorova, X.Y.Yuldashev, Q.N.Axmedov, A.K.Abdushukurov, H.S.Tojimuhamedov va boshqalar karbon kislotalar va ularning hosilalarini alkilash, atsillash reaksiyalari, izlanishlar olib borishga oʻz hissalarini qoʻshganlar.

Ushbu izlanishlarga qadar galogensirka kislotalari va ularning tuzlarini, dekan, miristin, palmitin, stearin kislotalarning alkilftalimidli hosilalarini sintez qilish deyarli oʻrganilmagan. Shuning uchun, ushbu reaksiyalarni tizimli oʻrganish va mahsulotlar tuzilishini bir qator fizik tadqiqot usullari yordamida aniqlash, istiqbolli moddalarning maqsadli sintezini amalga oshirish, yangi va biologik faol birikmalar yaratish nuqtai-nazaridan maqsadga muvofiqdir.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bogʻliqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Oʻzbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot loyihasining OT-F-7-52 (OT-F-7-50, OT-F-7-56, OT-F-7-58) «Turli tabiatli organik va noorganik moddalarning taʼsirlashish qonuniyatlari va reaksiyon qobiliyati hamda berilgan kompleks xossali yangi birikmalar olish» (2017-2020 yy.) mavzularidagi fundamental loyihalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** alifatik karbon kislotalarning ftalimidometil, ftalimidoetil efirlarini sintez qilish, olingan mahsulotlarning tuzilishini zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida tasdiqlash va biologik faolliklarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

alifatik karbon kislotalari - galogensirka, dekan, miristin, palmitin, stearin kislotalarining N-gidroksimetilftalimid, N- $\beta$ -gidroksietilftalimid bilan reaksiyalarini sulfat kislota katalizatorligida amalga oshirish;

sirka, monoxlorsirka, trixlorsirka kislotalari natriyli tuzlarining N-brommetilftalimid bilan nukleofil almashinish reaksiyalarini dimetilformamid (DMFA) erituvchisida olib borib, murakkab efirlarini sintez qilish;

almashingan sirka kislotalar ftalimidometil efirlarini sintez qilish sharoitida alifatik karbon kislota tuzlari asosida ftalimidoetil efirlarini sintez qilish;

eterifikatsiya reaksiyasiga kirishish qobiliyati past bo'lgan alifatik karbon kislotalarning ftalimidometil efirlari sintezini fazalararo kataliz usulida amalga oshirish;

tajribalar natijasida olingan yangi organik birikmalarning tuzilishini zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida tasdiqlash;

olingan birikmalarning biologik faolligi va amaliyotda qo'llanilish sohasini aniqlash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida galogen almashgan sirka kislotalarining ftalimidometil, ftalimidoetil efirlari va dekan, miristin, palmitin, stearin kislotalarining ftalimidometil, ftalimidoetil efirlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** alifatik karbon kislotalarning N-gidroksimetilftalimid, N- $\beta$ -gidroksietilftalimid bilan eterifikatsiya, sirka, monoxlorsirka, trixlorsirka kislotalari tuzlari bilan galogenalkilftalimidlarning nukleofil almashinish reaksiyalari, mahsulotlarning fizik-kimyoviy va biologik xossalarini aniqlash hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotlar jarayonida organik sintez usullari, yuqqa qatlam xromatografiyasi (YuQX), IQ-,  $^1\text{H}$  va  $^{13}\text{C}$  YaMR-spektroskopiya, rentgen tuzilish tahlili, xromato-mass-spektrometriya va in vitro skrining usullari qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

monogalogen sirka, dekan, miristin, palmitin va stearin kislotalarini N- $\beta$ -gidroksietilftalimid bilan alkillash N-gidroksimetilftalimidga nisbatan tez va yuqori unum bilan borishi ko'rsatilgan. Hosil bo'ladigan murakkab efirlarning unumi karbon kislotalarning kislotalik xususiyati ortib borish qatoriga mos ravishda oshishi aniqlangan;

N-gidroksimetilftalimidning reaksiya qobiliyati past bo'lgan karbon kislotalar bilan eterifikatsiya reaksiyasi sulfat kislota ishtirokida qutibsiz aproton erituvchida borganida tegishli murakkab efirlari hosil bo'lishi keskin pasayib, benzolning alkilimid hosilalari hosil bo'lishi aniqlangan. Buni N-gidroksimetilftalimidning barqaror karbokation hosil qilib oson protonlashishi va nukleofil xossasini yo'qotib, benzol halqasiga elektrofil mexanizmda hujum qilishi orqali ftalimidometilbenzollarni hosil qilishi bilan tushuntirilgan;

galogenalmashgan sirka kislotalarining  $\alpha$ -holatida galogen atomlari soni ortishi gidroksialkilftalimidlarning nukleofil hujumiga fazoviy qarshilik qilishi, gidrofillik xususiyati ortishi sababli, mono-, di-, trigalogen almashgan sirka kislotalari qatorida murakkab efirlarning hosil bo'lish unumi kamayib borishi isbotlangan;

galogen almashgan sirka kislota tuzlari bilan brommetilftalimidning reaksiyasi kuchli qutibli aproton erituvchi ishtirokida olib borilganda faqat murakkab efirlar hosil bo'ladi. Dekan, miristin, stearin, palmitin kislotalarning tuzlari bilan xlorometilftalimid reaksiyasini fazalararo kataliz sharoitida 4,4'-diasetildibenzo-18-kraun-6 ishtirokida olib borilganda, yuqori unumlar bilan tegishli ftalimidometil efirlari hosil bo'lishi isbotlangan;

ilk bor monoxlorsirka kislotasi ftalimidoetil efiri va monoyodsirka kislotasi ftalimidoetil efirlari tuzilishi rentgen tuzilish tahlili yordamida aniqlangan va The Cambridge Crystallographic Data Centre kristal bazasiga kiritilgan;

triftor, monoklor va monobrom sirka kislotalarining ftalimidoetil efirlari *Staphylococcus aureus*, *Bacillus subtilis* va *Staphylococcus aureus* bakteriyalariga qarshi faollikni namoyon qilishi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

galogen almashgan sirka kislotalarning ftalimidoalkil efirlari yuqori unumlar bilan sintez qilish usuli taklif qilingan;

galogen almashgan sirka kislotalari, dekan, miristin, palmitin, stearin kislotalarining ftalimidometil va ftalimidoetil guruhlarini saqlagan 26 ta yangi birikmalar qatorida bakteriyalar va mikroorganizmlarga qarshi faollik ko'rsatuvchi hosilalar olingan;

tadqiqotlar natijasida olingan triftorsirka kislotasi ftalimidoetil efiri va monoxlorsirka kislotasi ftalimidoetil efiri *Pseudomonas aeruginosa* grammanfiy bakteriyalariga qarshi bakteritsid faollik namoyon qilishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliliği** ishda qo'llanilgan zamonaviy fizik-kimyoviy usullar - IQ-,  $^1\text{H}$  va  $^{13}\text{C}$ -YaMR-spektroskopiya, xromato-mass-spektrometriya, rentgen tuzilish tahlili bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati, ftalimidli hosilalarining maqsadli sintezlarini alifatik karbon kislotalarda nukleofil almashinish reaksiyalari orqali amalga oshirish mumkinligi, reaksiya tezligi va mahsulot unumiga erituvchining tabiati, ta'siri tadqiq etilganligi bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, alifatik karbon kislotalarning alkilimidli yangi hosilalari qatorida bakteritsidlik, mikroorganizmlarga qarshi faollikka ega bo'lgan birikmalar borligi bilan izohlangan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ftalimid hosilalari asosida yangi birikmalarini samarali sintez qilish usullari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

triftorsirka kislotasini ftalimidoetil efiri sintezi uchun tashkilot standarti "O'zstandart" agentligi tomonidan tasdiqlangan (Ts 200845944-107:2022 "O'zstandart" agentligi standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy tadqiqot instituti. 01.07.2022 y). Natijada, yiringli yallig'lanish keltirib chiqaruvchi *Pseudomonas aeruginosa* bakteriyasiga qarshi faollik beradigan moddalar ishlab chiqarish imkonini bergan;

olingan yangi birikmalardan 2-(1,3-diokso-1,3-digidro-2H-izoindol-2-il)etilxloratsetat) va 2-(1,3-diokso-1,3-digidro-2H-izoindol-2-il)etilyodatsetat)larning rentgen tuzilish tahlil natijalari Kembrij markaziy kristallografik ma'lumotlar bazasiga kiritilgan (The Cambridge Crystallographic Data Centre, <https://www.crystallography.net>, CCDC 2189487, 2189488). Natijada, bazaga kiritilgan yangi o'xshash moddalarni sintez qilishda foydalanish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 2 ta xalqaro va 10 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan respublika ilmiy nashrlarida 3 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Alifatik karbon kislota hosilalarining sintezi, xossalari va qo'llanilish sohalari**» deb nomlangan **birinchi bobida** karbon kislota va ftalimid guruhi tutgan birikmalarni sintez qilish usullari, ular qo'llanilishining asosiy yo'nalishlari, ftalimid hosilalari asosida sintez qilingan birikmalarning ishlatilish sohalariga oid xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili keltirilgan. Ushbu umumlashtirilgan ma'lumotlar asosida ilmiy-tahliliy xulosalar chiqarilgan hamda ular asosida dissertatsiya ishining maqsadi, vazifalari, dolzarbligi va muhimligi belgilab berilgan.

Dissertatsiyaning «**Alifatik karbon kislotalarning ftalimidometil va ftalimidoetil efirlari sintezi**» deb nomlangan **ikkinchi bobida** turli alifatik karbon kislotalarning N-gidroksimetilftalimid (N-GMFI) va N- $\beta$ -gidroksietilftalimidlar (N- $\beta$ -GEFI) bilan eterifikatsiya reaksiyalari, galogensirka kislota tuzlarining N-brommetilftalimid (N-BMFI), N- $\beta$ -xloretilftalimidlar (N- $\beta$ -XEFI) bilan, N-xlormetilftalimid (N-XMFI) ning dekan, miristin, palmitin va stearin kislotalarining natriyli tuzlari bilan nukleofil almashinish reaksiyalari orqali efirlar olish usullari muhokama qilingan.

*Alifatik karbon kislotalarining N-gidroksimetilftalimid bilan reaksiyalari.* Bu bo'limda mono-, di- va trigalogenirka, dekan, miristin, palmitin, stearin kislotalari bilan N-GMFIning sulfat kislota ishtirokida, benzolda olib borilgan eterifikatsiya reaksiyalari tahlil qilingan. Yangi sintez qilingan murakkab efirlarning fizik kattaliklari va tuzilishini tasdiqlovchi spektral ma'lumotlar keltirilgan.

Dastlabki eterifikatsiya reaksiyasi monoxlorirka kislota bilan N-GMFI ekvimolekular miqdorida olib borildi. Reaksiyaning borish jarayonida hosil bo'ladigan suv benzol (Din-Stark tutqichi) yordamida 78-80°C haroratda reaksiyon muhitdan chiqarib turildi. Reaksiya uchun katalizator sifatida sulfat kislota qo'llanildi:



R=-CH<sub>2</sub>Cl(1), -CH<sub>2</sub>Br(2), -CH<sub>2</sub>I(3), -CHCl<sub>2</sub>(4), -CCl<sub>3</sub>(5), -CF<sub>3</sub>(6)

Monobrom, monoyod, dixlor, trixlor, triftorsirka kislotalarining N-GMFI bilan eterifikatsiya reaksiyalari yuqoridagi sharoitda olib borildi, olingan natijalar 1-jadvalda keltirildi.

**1-jadval.**

**Galogen almashgan sirka kislotalarining N-GMFI bilan (1:1 mol nisbatda, harorat 78-80°C) mahsuloti unumi va murakkab efirlarning fizik kattaliklari**

No	Modda nomi	Rf (benzol: atseton=3:1)	T <sub>suyuq</sub> , °C	Unumi, %
1	Monoxlorsirka kislotasining ftalimidometil efiri	0,81	87	59
2	Monobromsirka kislotasining ftalimidometil efiri	0,75	78-80	54
3	Monoyodsirka kislotasining ftalimidometil efiri	0,79	137	43
4	Dixlorsirka kislotasining ftalimidometil efiri	0,75	40-42	52
5	Trixlorsirka kislotasining ftalimidometil efiri	0,68	178	49
6	Triftorsirka kislotasining ftalimidometil efiri	0,84	92-93	50

**1-6** Birikmalarning IQ-, <sup>1</sup>H YaMR-spektroskopiya yordamida olingan natijalari 2-jadvalda umumlashtirildi.


**2-jadval.**

**Galogensirka kislota ftalimidometil efirlarining IQ-, <sup>1</sup>H YaMR- spektrlari natijalari**

IQ-spektri (ν, δ sm <sup>-1</sup> )			
1	3460 (-CO-NH-), 1704 (ν-C=O), 1431 (δ <sup>a</sup> CH <sub>2</sub> ), 1102 (ν <sup>s</sup> C-O-C), 623 (ν-C-Cl), 868 (δ(Ar)-C-H), 1765 (ν-CH <sub>2</sub> -COOR), 1297, 1331 (ν-C-N-)	4	1698 (νC=O), 1185 (ν <sup>s</sup> C-O-C), 1430 (δ <sup>s</sup> CH <sub>2</sub> ), 715 (ν>CCl <sub>2</sub> ), 824 (δ(Ar)-C-H)
2	3487 (-CO-NH-), 1704 (ν-C=O), 1429 (δ <sup>a</sup> CH <sub>2</sub> ), 1151 (ν <sup>s</sup> C-O-C), 531 (ν-C-Br), 851 (δ(Ar)=C-H), 1723 (ν-CH <sub>2</sub> -COOR), 1260, 1307 (ν-C-N-)	5	3487 (-CO-NH-), 1705 (ν-C=O), 1424 (δ <sup>a</sup> CH <sub>2</sub> ), 1056 (ν <sup>s</sup> C-O-C), 724 (ν-CCl <sub>3</sub> ), 845 (δ(Ar)-C-H), 1772 (ν-CH <sub>2</sub> -COOR), 1349, 1322 (ν-C-N-)
3	3487 (-CO-NH-), 1703 (ν-C=O), 1428 (δ <sup>a</sup> CH <sub>2</sub> ), 1108 (ν <sup>s</sup> C-O-C), 529 (ν-C-I), 879 (δ(Ar)-C-H), 1779 (ν-CH <sub>2</sub> -COOR), 1247, 1326 (ν-C-N-)	6	3485, 3209 (-CO-NH-), 1706 (ν-C=O), 1423 (δ <sup>a</sup> CH <sub>2</sub> ), 1051 (ν <sup>s</sup> C-O-C), 1146 (ν-C-F), 849 (δ(Ar)-C-H), 1770 (ν-CH <sub>2</sub> -COOR)
<sup>1</sup> H YaMR-spektri			
1	5,38 (H, c, N-CH <sub>2</sub> ), 3,14 (H, c, Cl-CH <sub>2</sub> ), 6,7-7,25 (4H, m, ArH).	4	4,78 (H, c, N-CH <sub>2</sub> ), 2,9 (H, c, Cl-CH <sub>2</sub> ), 6,72-7,23 (4H, m, ArH).
2	4,79 (H, c, N-CH <sub>2</sub> ), 2,9 (H, c, Br-CH <sub>2</sub> ), 6,75-7,25 (4H, m, ArH).	5	5,01 (H, c, N-CH <sub>2</sub> ), 6,7-7,25 (4H, m, ArH).
3	5,37 (H, c, N-CH <sub>2</sub> ), 3,0 (H, c, Cl-CH <sub>2</sub> ), 6,75-7,28 (4H, m, ArH).	6	3,39 (H, c, N-CH <sub>2</sub> ), 6,72-7,28 (4H, m, ArH).


Alifatik karbon kislotalardan dekan, miristin, palmitin va stearin kislotalarining N-GMFI bilan reaksiyalari yuqoridagi sharoitda olib borildi. Reaksiyalar natijasida reaksiyon qobiliyati past bo'lgan ushbu karbon kislotalar o'rtasidagi eterifikatsiyasi deyarli bormaydi, balki erituvchi-benzol bilan elektrofil

almashinish reaksiyasi borib, mono- va bis- almashingan benzol hosilari hosil bo'ladi:



Tadqiqotlar natijalari 3-jadvalda umumlashtirildi.

Palmitin kislotasining metilolftalimid bilan reaksiyasi mahsulotlari xromoto-mass-spektrometriya usuli bilan tahlil qilindi. Molekulyar iondan bo'lakli ionlar hosil bo'lishi quyidagicha ko'rsatildi:



3-jadval.

Dekan, miristin, palmitin, stearin kislotalar bilan N-GMFI (reagentlar 1:1 mol nisbatda, harorat 80°C, erituvchi benzol) reaksiyasi mahsulotlari unumi va fizik kattaliklari

№	Modda nomi	Rf (benzol: atseton 3:1)	T <sub>suyuq</sub> , °C	Mahsulotlar unumi, %
7	Dekan kislotali ftalimidometil efiri	0,7	59-61	17 (a 75; b, c 8)
8	Miristin kislotali ftalimidometil efiri	0,68	63-65	14 (a 77; b, c 9)
9	Palmitin kislotali ftalimidometil efiri	0,75	67-68	11 (a 79; b, c 10)
10	Stearin kislotali ftalimidometil efiri	0,72	73-74	10 (a 82; b, c 8)

Olingan 7-10 murakkab efirlarning IQ-spektroskopiya natijalari 4-jadvalda keltirildi.



## 4-jadval.

## Alifatik kislota ftalimidometilefirlarining IQ-spektridagi yutilish sohalari

IQ-spektri ( $\nu, \delta \text{ sm}^{-1}$ )			
<b>7</b>	1706 ( $\nu\text{-C=O}$ ), 1431, 1466 ( $\delta^a\text{CH}_2$ ), 1276 ( $\nu^s\text{C-O-C}$ ), 1764 ( $\nu\text{-CH}_2\text{-COOR}$ ), 1330 ( $\nu\text{-C-N-}$ ), 3060 ( $\nu\text{-Ar=C-H}$ )	<b>9</b>	1699 ( $\nu\text{-C=O}$ ), 1409, 1468 ( $\delta^a\text{CH}_2$ ), 1186 ( $\nu^s\text{C-O-C}$ ), 781 ( $\delta(\text{Ar})\text{-C-H}$ ), 1740 ( $\nu\text{-CH}_2\text{-COOR}$ ), 1310 ( $\nu\text{-C-N-}$ ), 2954 ( $\nu^a\text{-CH}_3$ ), 2915 ( $\nu^s\text{CH}_2$ ), 2848 ( $\nu^s\text{CH}_3$ )
<b>8</b>	1697 ( $\nu\text{-C=O}$ ), 1431, 1471 ( $\delta^a\text{CH}_2$ ), 1236 ( $\nu^s\text{C-O-C}$ ), 1765 ( $\nu\text{-CH}_2\text{-COOR}$ ), 1306 ( $\nu\text{-C-N-}$ ), 2953 ( $\nu^a\text{-CH}_3$ ), 2912 ( $\nu^s\text{CH}_2$ ), 2847 ( $\nu^s\text{CH}_3$ )	<b>10</b>	1699 ( $\nu\text{-C=O}$ ), 1430, 1471 ( $\delta^a\text{CH}_2$ ), 1186 ( $\nu^s\text{C-O-C}$ ), 809 ( $\delta(\text{Ar})\text{-C-H}$ ), 1740 ( $\nu\text{-CH}_2\text{-COOR}$ ), 1313 ( $\nu\text{-C-N-}$ ), 2954 ( $\nu^a\text{-CH}_3$ ), 2915 ( $\nu^s\text{CH}_2$ ), 2848 ( $\nu^s\text{CH}_3$ )

*Alifatik karbon kislotalarning N-β-gidroksietilftalimid bilan reaksiyalari.* Bu boʻlimda mono-, di- va trigalogensirka, dekan, miristin, palmitin, stearin kislotalarining N-β-GEFI bilan eterifikatsiya reaksiyalari oʻrganilgan, reaksiyalar natijasida yuqori unumlar bilan ftalimidoetil efirlari hosil boʻlishi koʻrsatilgan.

N-β-GEFning galogen almashgan sirka kislotalardan monoxlor, monobrom, monoyod, dixlor, trixlor va triflor sirka kislotalar bilan eterifikatsiya reaksiyalar an'anaviy usulda, bir xil sharoitda olib borildi.



N-β-GEFning tegishli galogensirka kislotalari bilan reaksiyalari natijalari 5-jadvalda keltirildi.

## 5-jadval.

Galogensirka kislotalarining N-β-GEFI (1:1 mol nisbatda, harorat 78-80<sup>0</sup>C) bilan reaksiyasi unumi va mahsulotlarning fizik kattaliklari

No	Modda nomi	Rf(benzol: atseton.3:1)	T <sub>suyuq</sub> , °C	Mahsulot unumi, %
<b>11</b>	Monoxlorsirka kislotasining ftalimidoetil efiri	0,72	105-106	97
<b>12</b>	Monobromsirka kislotasining ftalimidoetil efiri	0,75	129-130	95
<b>13</b>	Monoyodsirka kislotasining ftalimidoetil efiri	0,69	90-91	89,3
<b>14</b>	Dixlorsirka kislotasining ftalimidoetil efiri	0,62	98-99	82
<b>15</b>	Trixlor sirka kislotasining ftalimidoetil efiri	0,58	78-79	62
<b>16</b>	Triflor sirka kislotasining ftalimidoetil efiri	0,59	102-103	63

Olingan birikmalarning tuzilishi IQ-, <sup>1</sup>H YaMR-spektroskopiya usullari yordamida tasdiqlandi (6-jadval).

## 6-jadval.

Galogensirka kislotalari ftalimidoetil efirlarining IQ-, <sup>1</sup>H YaMR-spektri natijalari

IQ-spektri ( $\nu, \delta \text{ sm}^{-1}$ )			
<b>11</b>	1717 ( $\nu\text{C=O}$ ), 1138 ( $\nu^s\text{C-O-C}$ ), 1467 ( $\delta^s\text{CH}_2$ ), 612 ( $\nu\text{-C-Cl}$ ), 848 ( $\delta(\text{Ar})\text{-C-H}$ )	<b>14</b>	1702 ( $\nu\text{C=O}$ ), 1162 ( $\nu^s\text{C-O-C}$ ), 1408 ( $\delta^s\text{CH}_2$ ), 722 ( $\nu>\text{CCl}_2$ ), 814 ( $\delta(\text{Ar})\text{-C-H}$ )
<b>12</b>	721, 775 ( $\delta(\text{Ar})\text{CH}$ ), 1709 ( $\nu(\text{Ar})\text{C=C}$ ), 3014, 3096 ( $\nu(\text{Ar})\text{CH}$ ), 3455(-CO-NH-), 2962 ( $\nu^a\text{CH}_2$ ), 1755, 1773 ( $\nu\text{-CH}_2\text{-COOR}$ ), 1191( $\nu\text{-C-O-}$ )	<b>15</b>	2961 ( $\nu^s\text{CH}_2$ ), 1701 ( $\nu\text{C=O}$ ), 1428 ( $\delta^a\text{CH}_2$ ), 1053 ( $\nu^s\text{C-O-C}$ ), 719 ( $\nu\text{-CCl}_3$ ), 834 ( $\delta(\text{Ar})\text{-C-H}$ )
<b>13</b>	720, ( $\delta(\text{Ar})\text{CH}$ ), 1701 ( $\nu(\text{Ar})\text{C=C}$ ), 2958 ( $\nu(\text{Ar})\text{CH}$ ), 1738, 1769 ( $\nu\text{-CH}_2\text{-COOR}$ ), 1136 ( $\nu\text{-C-O-}$ )	<b>16</b>	2954 ( $\nu^s\text{CH}_2$ ), 1692 ( $\nu\text{C=O}$ ), 1427 ( $\delta^a\text{CH}_2$ ), 1056 ( $\nu^s\text{C-O-C}$ ), 1015 ( $\nu\text{-C-F}$ ), 800 ( $\delta(\text{Ar})\text{-C-H}$ )
<sup>1</sup> H YaMR-spektri			

11	3,8 (2H, t, O-CH <sub>2</sub> ), 4,32 (2H, t, N-CH <sub>2</sub> ), 3,99 (H, c, Cl-CH <sub>2</sub> ), 7,67-7,7 (4H, m, ArH).	14	3,6 (2H, t, O-CH <sub>2</sub> ), 4,2 (2H, t, N-CH <sub>2</sub> ), 3,8 (H, c, Cl <sub>2</sub> -CH), 7,6-7,7 (4H, m, ArH).
12	3,3-3,4 (2H, t, O-CH <sub>2</sub> ), 3,8-3,9 (2H, t, N-CH <sub>2</sub> ), 7-7,1 (H, c, Br-CH <sub>2</sub> ), 6,7-7,3 (4H, m, ArH).	15	6,9 (2H, t, O-CH <sub>2</sub> ), 6,8-6,9 (2H, t, N-CH <sub>2</sub> ), 6,7-6,75-7,25 (4H, m, ArH).
13	3,4 (2H, t, O-CH <sub>2</sub> ), 3,9 (2H, t, N-CH <sub>2</sub> ), 3,01 (H, c, J-CH <sub>2</sub> ), 6,7-7,3 (4H, m, ArH).	16	6,95 (2H, t, O-CH <sub>2</sub> ), 6,85 (2H, t, N-CH <sub>2</sub> ), 6,7-7,25 (4H, m, ArH).

7-jadval.

Dekan, miristin, palmitin va stearin kislotalarining (1:1 mol nisbatda olingan, harorat 78-80°C) N-β-GEFI bilan reaksiya mahsulotlarning fizik kattaliklari

№	Modda nomi	Rf (benzol: atseton3:1)	T <sub>suyuq</sub> , °C	Mahsulot unumi, %
17	Dekan kislotali ftalimidoetil efiri	0,48	43-44	90
18	Miristin kislotali ftalimidoetil efiri	0,58	41-42	89
19	Palmitin kislotali ftalimidoetil efiri	0,69	54-55	89
20	Stearin kislotali ftalimidoetil efiri	0,66	61-62	87


Sintez qilingan 17-20 efirlarning IQ-spektroskopiya natijalari quyidagi 8-jadvalda keltirildi.




8-jadval.

Dekan, miristin, palmitin va stearin kislotalarining N-β-GEFI bilan reaksiya mahsulotlarning IQ-spektri natijalari


IQ-spektri (ν, δ cm <sup>-1</sup> )			
17	1702 (ν-C=O), 1421, 1456 (δ <sup>a</sup> CH <sub>2</sub> ), 1266 (ν <sup>s</sup> C-O-C), 1754 (ν-CH <sub>2</sub> -COOR), 1320 (ν-C-N-), 3062 (ν-(Ar)=C-H)	19	1718 (ν-C=O), 1444, 1462 (δ <sup>a</sup> CH <sub>2</sub> ), 1177 (ν <sup>s</sup> C-O-C), 863 (δ(Ar)-C-H), 1773 (ν-CH <sub>2</sub> -COOR), 1312 (ν-C-N-), 2954 (ν <sup>a</sup> -CH <sub>3</sub> ), 2917 (ν <sup>s</sup> CH <sub>2</sub> ), 2848 (ν <sup>s</sup> CH <sub>3</sub> )
18	1716 (ν-C=O), 1444, 1462 (δ <sup>a</sup> CH <sub>2</sub> ), 1163 (ν <sup>s</sup> C-O-C), 863 (δ(Ar)-C-H), 1773 (ν-CH <sub>2</sub> -COOR), 1312 (ν-C-N-), 2954 (ν <sup>a</sup> -CH <sub>3</sub> ), 2917 (ν <sup>s</sup> CH <sub>2</sub> ), 2848 (ν <sup>s</sup> CH <sub>3</sub> )	20	1717 (ν-C=O), 1444, 1462 (δ <sup>a</sup> CH <sub>2</sub> ), 1178 (ν <sup>s</sup> C-O-C), 863 (δ(Ar)-C-H), 1773 (ν-CH <sub>2</sub> -COOR), 1313 (ν-C-N-), 2954 (ν <sup>a</sup> -CH <sub>3</sub> ), 2917 (ν <sup>s</sup> CH <sub>2</sub> ), 2848 (ν <sup>s</sup> CH <sub>3</sub> )

Murakkab efirlar hosil bo'lish mexanizmini klassik usulda boradi. Bunga ko'ra, karbon kislota va spirtan murakkab efir hosil bo'lish reaksiyasida kislota molekulasining gidroksil guruhi spirtning alkoksi guruhiga almashadi. Shunga ko'ra, mineral kislotalarning protoni karbon kislotalarning karbonil guruhi kislorodiga birikadi va uglerod atomidagi musbat zaryad qiymatini keskin oshiradi. Bu esa spirtning O-nukleofil hujumini yengillashtiradi va natijada oksoniy birikma hosil bo'ladi. Oksoniy birikmaning qayta guruhlanishi va suv molekulasining chiqib ketishi bilan murakkab efir hosil bo'ladi:






N-GMFI ning kuchsiz kislotalar bilan reaksiyalari olib borilganda esa aromatik alkilimid mahsulotlarning hosil bo'lishini quyidagicha tushuntiriladi. Dastlab, spirtning gidroksil guruhi kislota protonlari hisobiga protonlashadi va imid guruhi ta'siri natijasida barqaror karbokation hosil qiladi, o'z navbatida bu uning nukleofillik xossasini yo'qotadi.




Elektrofil o'rin almashinish reaksiyasining yo'nalishi va tezligi birinchi navbatda, turg'un holatda bo'lgan reaksiyaga kirishmagan molekula elektron buluti zichligining taqsimlanishiga ya'ni, statik omilga bog'liq bo'ladi, so'ngra, reaksiya vaqtida aromatik halqa elektron buluti zichligini qayta taqsimlanishiga ya'ni dinamik omilga bog'liq.

Sirka kislota natriyli tuzlarining brommetil ftalimid bilan reaksiyalari asosida murakkab efirlar sintez qilish. Brommetilftalimid va sirka kislota natriyli tuzlari ishtirokida olingan murakkab efirlarning unumi metilolftalimid va galogen sirka kislotalaridan olingan murakkab efirlarning unumiga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Shuningdek, dimetilfarmamid (DMFA) erituvchisida olib borilganda yaxshi natijaga erishildi (9-jadval).

Brommetilftalimidning tegishli galogensirka kislotalarining tuzlari bilan umumiy reaksiya tenglamasi:



Reaksiya uchun quyidagicha nukleofil almashinish mexanizmi taklif qilindi:



9-jadval.

**Brometilftalimid va tegishli galogensirka kislotalari natriyli tuzlarining (1:1 mol nisbatda olingan, harorat 150-160°C) reaksiya mahsulotlarining ayrim fizik kattaliklari**

№	Modda nomi	Rf (geksan: atseton.3:1)	T <sub>suyuq</sub> , °C	Mahsulot unumi, %
21	Sirka kislotasining ftalimidometil efiri	0,65	92-93	54
22	Monoxlorsirka kislotasining ftalimidometil efiri	0,2	87-89	67
23	Trixlorsirka kislotasining ftalimidometil efiri	0,3	178-179	71

Olingan birikmalarning tuzilishi IQ-spektroskopiya usuli orqali tahlil qilindi (10-jadval).


10-jadval.

**N-gidroksimetilftalimidning galogensirka kislota efirlarining IQ- spektridagi signallar natijalari**

IQ-spektri (ν, δ sm <sup>-1</sup> )	
21	1716 (ν-C=O), 1409, 1467 (δ <sup>a</sup> CH <sub>2</sub> ), 1183 (ν <sup>s</sup> C-O-C), 817 (δ(Ar)-C-H), 1771 (ν-CH <sub>2</sub> -COOR), 1288 (ν-C-N-), 3060 (ν <sup>a</sup> -CH <sub>3</sub> ), 2718 (ν <sup>s</sup> CH <sub>3</sub> ), 3189 (δ(Ar)-C-H)
22	1663 (ν-C=O), 1409, 1399 (δ <sup>a</sup> CH <sub>2</sub> ), 1264 (ν <sup>s</sup> C-O-C), 829 (δ(Ar)-C-H), 1821 (ν-CH <sub>2</sub> -COOR), 1140 (ν-C-N-), 636 (ν <sup>a</sup> -CCl), 2864 (ν <sup>s</sup> CH <sub>2</sub> ), 2997 (δ(Ar)-C-H)
23	1665 (ν-C=O), 1487, 1444 (δ <sup>a</sup> CH <sub>2</sub> ), 1145 (ν <sup>s</sup> C-O-C), 829 (δ(Ar)-C-H), 1797 (ν-CH <sub>2</sub> -COOR), 1257 (ν-C-N-), 713 (-CCl <sub>3</sub> ), 2851 (ν <sup>s</sup> CH <sub>2</sub> ), 3040 (δ(Ar)-C-H)

Reaksiyalar xloretilftalimid va sirka kislota natriyli tuzlari bilan ham olib borildi. Xloretilftalimid va sirka kislota natriyli tuzlari ishtirokidagi reaksiyalar dimetilfarmamid (DMFA) eritmasida olib borildi(11-jadval).

Xloretilftalimidning tegishli galogensirka kislotalarining tuzlari bilan reaksiya tenglamasi:



11-jadval.

**Xloretilftalimid va tegishli galogensirka kislotalari natriyli tuzlarining (1:1 mol nisbatda olingan, 150°C) reaksiya sharoiti va mahsulotlarining fizik kattaliklari**


№	Modda nomi	Rf (benzol.: atseton 3:1)	T <sub>suyuq</sub> , °C	Mahsulot unumi, %
24	Sirka kislotasining ftalimidoetil efiri	0,7	76-77	64
25	Monoxlorsirka kislotasining ftalimidoetil efiri	0,72	105-106	68
26	Trixlorsirka kislotasining ftalimidoetil efiri	0,65	78-79	73

Olingan birikmalarning IQ-spektroskopiya usullari yordamida olingan natijalari 12-jadvalda umumlashtirildi.

**Xloretilftalimidning sirka, monoxlorsirka, trixlorsirka kislota efirlarining  
IQ-spektri natijalari**


IQ-spektri ( $\nu$ , $\delta$ $\text{cm}^{-1}$ )	
<b>24</b>	1709 ( $\nu\text{-C=O}$ ), 1173 ( $\nu^s\text{C-O-C}$ ), 817 ( $\delta(\text{Ar})\text{-C-H}$ ), 1761 ( $\nu\text{-CH}_2\text{-COOR}$ ), 1278 ( $\nu\text{-C-N-}$ ), 2718 ( $\nu^s\text{CH}_3$ )
<b>25</b>	1717 ( $\nu\text{C=O}$ ), 1138 ( $\nu^s\text{C-O-C}$ ), 1467( $\delta^s\text{CH}_2$ ), 612 ( $-\text{C-Cl}$ ), 848 ( $\delta(\text{Ar})\text{-C-H}$ )
<b>26</b>	3459( $-\text{CO-N-}$ ), 2961 ( $\nu^s\text{CH}_2$ ), 1701 ( $\nu\text{C=O}$ ), 1188 ( $\nu^s\text{C-O-C}$ ), 1467( $\delta^s\text{CH}_2$ ), 719 ( $-\text{CCl}_3$ ), 834 ( $\delta(\text{Ar})\text{-C-H}$ )

Dekan, miristin, palmitin, stearin kislotalarining metilolftalimid bilan eterifikatsiya reaksiyasidan olingan efirlarning unumlarini ko‘tarish maqsadida, shu kislotalarning natriyli tuzlari bilan brommetilftalimid o‘rtasida fazalararo kataliz reaksiyalari olib borildi. Reaksiya tenglamasini quyidagicha ifodalash mumkin:



Reaksiya uchun Starks siklini quyidagicha ifodalash mumkin.

Palmitin kislotasi natriyli tuzining brommetilftalimid bilan 4,4'-diasetildibenzo-18-kraun-6 ishtirokidagi reaksiyasining Starks sikli:



Dekan, miristin, palmitin va stearin kislotalari natriyli tuzlarining xlormetilftalimid bilan fazalararo kataliz reaksiyasi natijalari 13-jadvalda keltirildi.

## 13-jadval.


**Xlormetilftalimidning dekan, miristin, palmitin, stearin kislota tuzlari bilan fazalar aro kataliz reaksiyalari mahsulotlari (katalizator 4,4'-diasetildibenzo-18-kraun-6)**

№	Modda nomi	Rf (geksan:atseton 3:1)	T <sub>suyuq</sub> , °C	Unum,%
27	Dekan kislota ftalimidometil efiri	0,7	59-61	87
28	Miristin kislota ftalimidometil efiri	0,68	63-65	85
29	Palmitin kislota ftalimidometil efiri	0,75	67-68	84
30	Stearin kislota ftalimidometil efiri	0,72	73-74	82

Olingan natijalarga asosan shuni aytish mumkinki Dekan, miristin, palmitin va stearin kislotalarining ftalimidometil efirlari FAK sharoitida yuqori unum bilan hosil bo'ladi.

Olingan moddalarning kimyoviy xossalarini o'rganish maqsadida monobromsirka kislotasining ftalimidoetil efiri bilan sirka, monoxlorsirka va trixlorsirka kislotalarining natriyli tuzlari bilan reaksiyalar dimetilfarmamid (DMFA) eritmasida olib borildi (14-jadval).

Monobromsirka kislotasining ftalimidoetil efirining tegishli galogensirka kislotalarining tuzlari bilan DMFA erituvchisidagi umumiy reaksiya tenglamasi:



## 14-jadval.

**Monobromsirka kislotasining ftalimidoetil efiri va tegishli galogensirka kislotalari tuzlarining (1:1 mol nisbatda olingan, harorat 150-160°C) reaksiya sharoiti va mahsulotlarining ayrim fizik kattaliklari**

№	Modda nomi	Rf (geksan:atseton 2:1)	Tsuyuq, °C	Mahsulot unumi, %
31	Atsetoksi sirka kislotasining N-ftalimidoetil efiri	0,125	209-210	39
32	Xloratsetoksi sirka kislotasining N-ftalimidoetil efiri	0,375	218-219	41
33	Trixloratsetoksi sirka kislotasining N-ftalimidoetil efiri	0,325	215-216	43


## 15-jadval.

**Monobromsirka kislota ftalimidoetil efirining sirka, monoxlorsirka, trixlorsirka kislota tuzlari bilan reaksiya mahsulotlarining IQ-spektri natijalari**

IQ-spektri (ν, δ cm <sup>-1</sup> )	
31	1709 (ν-C=O), 1173 (ν <sup>s</sup> C-O-C), 817 (δ(Ar)-C-H), 1761 (ν-CH <sub>2</sub> -COOR), 1278 (ν-C-N-), 2718 (ν <sup>s</sup> CH <sub>3</sub> )
32	1717 (νC=O), 1138 (ν <sup>s</sup> C-O-C), 1467(δ <sup>s</sup> CH <sub>2</sub> ), 612 (-C-Cl), 848 (δ(Ar)-C-H)
33	3459(-CO-N-), 2961 (ν <sup>a</sup> CH <sub>2</sub> ), 1701 (νC=O), 1188 (ν <sup>s</sup> C-O-C), 1467(δ <sup>s</sup> CH <sub>2</sub> ), 719 (-CCl <sub>3</sub> ), 834 (δ(Ar)-C-H)


Sintez asosida olingan barcha ftalimidometil- va ftalimidoetil- hosilalari qattiq moddalardir (1,3,5,7-jadvallar).

Olingan N-etilftalimid va N-ftalimidometil- birikmalarining tuzilishi IQ-,  $^1\text{H}$  YaMR-spektroskopiya va xromato-mass-spektrometriya usuli orqali tasdiqlandi.



### *Monoyodsirka kislotasi ftalimidoetil efirining $^1\text{H}$ YaMR-spektri*

Monoyodsirka kislotasi ftalimidoetil efirining PMR-spektrida kislorodga bog'langan metilen guruhidagi ikkita vodorod protonining triplet signali  $\delta = 3,4$  m.u.da ( $2\text{H}, 2\text{CH}_2$ ), azotga bog'langan metilen guruhi protonlarining triplet signali  $\delta = 3,9$  m.u.da ( $2\text{H}, 2\text{CH}_2$ ), yodga bog'langan metilen guruhi protonlarining singlet signali  $\delta = 3,0$  m.u.da ( $2\text{H}, 2\text{CH}_2$ ), aromatik halqa vodorod protonlarining multiplet signali  $\delta = 7,3 - 6,7$  m.u. da ( $8\text{H}, 2\text{ArH}$ ) kuchsiz sohalarda kuzatildi.




### *Trixlorsirka kislotasining ftalimidometil efiri IQ-spektri*

IQ-spektridagi o'ziga xos yutilish sohalari ( $\text{sm}^{-1}$ ): 1,2-dialmashigan aromatik halqadagi CH bog'ining deformatsion tebranishlari 721, 757 da; 1614 aromatik halqadagi C=C bog'larning va 2970 C-N bog'larning valent tebranishlari, 1721, 3467 -CO-NH- amid;  $\text{CH}_2$  guruhining assimetrik 2970 da, azotga bog'langan  $\text{CH}_2$  guruhining valent tebranishlari 1398 da; 1769 - $\text{CH}_2$ -COOR murakkab efir bog'ining valent va 1173, 1190 -C-O- bog'ining valent tebranishlari kuzatildi.

Olib borilgan ishlar asosida sintez qilingan moddalardan monoxlorsirka kislotasiftalimidoetil efiri va monoyodsirka kislotasi ftalimidoetil efirining rentgen tuzilish analizi yordamida tuzilishlari isbotlandi va Kembrij markaziy kristallografik ma'lumotlar bazasidan CCDC ma'lumotnomalar olindi.

(Monoxlor sirka kislotasi ftalimidoetil efiri uchun №-2189487, monoyodsirka kislotasi ftalimidoetil efiri uchun №-2189488 ).



monoxlor sirka kislotasi ftalimidoetil efirining kristal tuzilishi

monoyod sirka kislotasi ftalimidoetil efirining kristal tuzilishi

Sintez qilib olingan moddalarning biologik faolliklarini o‘rganish maqsadida O‘zRFA O‘simlik moddalari kimyosi instituti Molekular genetika laboratoriyasida Antimikrob faollik bo‘yicha *in vitro* skrining tadqiqotlari xalqaro standartlarga muvofiq (CLSI document M02. 13th Edition. USA, 2018; DIN 222, Medizinische Mikrobiologie und Immunologie. Beuth-Verlag, Berlin (2004); GF XI) modifikatsiyalangan “Agarli disk-diffuziya” usuli yordamida amalga oshirildi.

16-jadval.

### Sintez kilingan moddalarning biologik faolligi

№	Birikma nomi	Ingibirlanish zonasi diametri (mm, ± SD, P≤0.05)				
		Gram-ijobiy bakteriyalar		Gram-salbiy bakteriyalar		Zamburug
		<i>Bacillus subtilis</i>	<i>Staphylococcus aureus</i>	<i>Escherichia coli</i>	<i>Pseudomonas aeruginosa</i>	<i>Candida albicans</i>
1	MXSKFME	N/A	<b>8.04±0.10</b>	N/A	N/A	N/A
2	MXSKFEE	<b>12.08±0.12</b>	N/A	N/A	N/A	N/A
3	MBSKFEE	<b>12.08±0.12</b>	<b>10.04±0.10</b>	N/A	N/A	N/A
4	TFSKFEE	N/A	N/A	<b>9.04±0.10</b>	<b>30.04±0.10</b>	N/A
5	PKFEE	N/A	N/A	N/A	N/A	N/A
6	IKFEE	N/A	N/A	N/A	<b>12.08±0.12</b>	N/A
7	MKFEE	N/A	N/A	N/A	N/A	N/A
8	TXASKFEE	<b>15.08±0.12</b>	N/A	<b>9.04±0.10</b>	<b>13.04±0.10</b>	N/A
9	MXASKFEE	<b>15.08±0.12</b>	<b>14.04±0.10</b>	<b>12.04±0.10</b>	<b>16.04±0.10</b>	N/A
10	2,4DNBKSKEE	N/A	N/A	N/A	N/A	N/A
	Ampicillin/Sulbactam	<b>28.08±0.12</b>	<b>27.04±0.10</b>	N/T	N/T	N/T
	Gentamicin	N/T	N/T	<b>24.04±0.10</b>	<b>22.04±0.10</b>	N/T
	Fluconazole	N/T	N/T	N/T	N/T	<b>30.08±0.12</b>

Test natijalari o‘rganilgan birikmalar orasidan eng yuqori faollikni Triflorosirka kislotasi ftalimidoetil efiri (TFSKFEE) gram-salbiy *Pseudomonas*

*aeruginosa* (*sinegnoynaya palochka*) bakteriyasiga nisbatan namoyon qildi. Natijalar ushbu qatorga mansub birikmalar orasidan antibakterial xususiyatga ega yangi istiqbolli birikmalarni sintez yo'li bilan olish mumkinligini ko'rsatdi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida tajribalar qismi bo'lib tadqiqotlarni olib borish uchun boshlang'ich moddalar sintezi, ftalimid hosilalarini olish va olingan birikmalarda eterifikatsiya reaksiyalari asosida tegishli murakkab efirlar sintezi, shuningdek olingan mahsulotlarning kimyoviy o'zgarishlarini olib borish usullari, amidoalkillash reaksiyalari keltirilgan.

## XULOSALAR

1. Ilk bor monogalogen sirka kislotalarining N-gidroksimetilftalimid, N- $\beta$ -gidroksietilftalimid bilan reaksiyalarini kam miqdordagi proton kislotalar ishtirokida benzolda olib borilib yuqori unumlar bilan murakkab efirlari sintez qilindi. Murakkab efirlarning hosil bo'lishi galogenlarning elektromanfiyligi yoki monogalogen almashgan sirka kislotalarining kislotalik xossasi ortishi qatoriga mos kelishi ko'rsatib berilgan.

2. Dekan, miristin, palmitin va stearin kislotalarning ftalimidometil efirlari sintezida odatdagi eterifikatsiya reaksiyasi samarasiz deb topildi. Chunki, N-gidroksimetilftalimid tanlangan muhitda nukleofil xossasini yo'qotadi va karbokation hosil qilgan xolda aromatik halqaga elektrofil almashinishi natijasida mono- va bis-almashgan benzolning alkilimid hosilalari hosil qiladi.

3. Dekan, miristin, palmitin, stearin kislotalarning ftalimidometil efirlarini, yuqori unumlar bilan va qo'shimcha jarayonlarsiz olish uchun tegishli karbon kislotalarning tuzlari va xlorometilftalimid qo'llagan holda fazalararo kataliz usulidan foydalanib katalizator 4,4'-diasetildibenzo-18-kraun-6 ni qo'llash tavsiya qilingan.

4. Almashgan sirka kislota tuzlarining brommetilftalimid bilan reaksiyasida dimetil formamid erituvchisidan foydalanilganda hosil bo'ladigan mahsulot sirka, monoxlor, trixlor sirka kislotalari ftalimidometil efirlari unumlari karbon kislotalarning kislotalik xossasi ortishi qatoriga mos kelishi aniqlangan. Galogenalmashgan sirka kislotalarining  $\alpha$ -holatida galogen atomlari soni ortishi gidroksialkilftalimidlarning nukleofil hujumiga fazoviy qarshilik qiladi, gidrofillik xususiyati ortishi sababli, mono-, di-, trigalogen almashgan sirka kislotalari qatorida murakkab efirlarning hosil bo'lish unumi kamayib boradi.

5. Sintez qilingan yangi alifatik kislota hosilalarining tuzilishi zamonaviy fizik-tadqiqot usullar (IQ-,  $^1\text{H}$  YaMR-,  $^{13}\text{C}$  YaMR-spektroskopiya va xromoto-mass-spektrometriya, roentgen tuzilish tahlili (RTT)), (Cambridge Crystallographic Data Centre, <https://www.-crystallography.net>, CCDC №-2189487; №-2189488) yordamida tasdiqlangan va ular organik sintezda muhim sintonlar sifatida foydalanishga tavsiya etilgan.

6. Olingan moddalarning biologik faolliklari o'rganilib triflor sirka kislotasining ftalimidoetil efiri yiringli yaralar keltirib chiqaruvchi *Pseudomonas aeruginosa*, monoxlor va monobromsirka kislotasining ftalimidoetil efiri *Bacillus subtilis* va *Staphylococcus aureus* bakteriyalariga qarshi bakteritsid, bakteriostatiklikni namoyon qilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019K.01.03  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**  

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА**

**ТУРАЕВ ШЕРЗОД БАХОДИРОВИЧ**

**СИНТЕЗ И СВОЙСТВА ФТАЛИМИДОАЛКИЛОВЫХ ЭФИРОВ  
АЛИФАТИЧЕСКИХ КАРБОНОВЫХ КИСЛОТ**

**02.00.03 – Органическая химия**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2023**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером В2021.1.PhD/К361.**

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета [www.ik-kimyو.nuuz.uz](http://www.ik-kimyو.nuuz.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу [www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Юлдашева Мухаббат Раззакбердиевна</b> доктор химических наук, доцент
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Махсумов Абдухамид Гафурович</b> доктор химических наук, профессор <b>Жоракулов Шерзод Нияткабулович</b> доктор философии (PhD) в области химических наук, старший научный сотрудник
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Ташкентский фармацевтический институт</b>

Защита диссертации состоится « 18 » « апреля » 2023 года в «13<sup>00</sup>» часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019K.01.03 при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, Ташкент, ул. Университетская 4, Тел.: (998 71) 227-12-24, факс (998 71) 246-53-21; 246-02-24. e-mail: chem0102@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана за № 59 (Адрес: 100174, Ташкент, ул. Университетская 4, Тел.: (99871) 227-12-24, факс: (998 71) 246-53-21, 246-02-24.

Автореферат диссертации разослан « 6 » « апреля » 2023 года.

(реестр протокол рассылки № 5 от « 6 » « апреля » 2023 года).

**З. А. Сманова**

Председатель научного совета по  
присуждению учёных степеней  
д.х.н., профессор

**М. А. Махкамов**

Ученый секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.х.н., профессор

**А. К. Абдушукуров**

Председатель научного семинара при научном  
совете по присуждению учёных степеней,  
д.х.н., профессор

## **Введение (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В настоящее время производные алифатических карбоновых кислот используются в пищевой промышленности, сельском хозяйстве и фармацевтике для получения различных препаратов. В частности, из алкилимидных производных алифатических карбоновых кислот получены противоопухолевые, противовоспалительные, обезболивающие препараты, антиоксиданты, красители и важные для сельского хозяйства соединения, создание которых и совершенствование методов их получения имеют большое значение в химической промышленности.

В мире ведутся научные исследования по совершенствованию методов синтеза сложных эфиров карбоновых кислот, повышению выхода продуктов за счет использования новых типов катализаторов - сульфаминовой кислоты, меди, L-пролина, карбоната цезия, кислоты Льюиса. Для предотвращения протекания побочных реакций в этом процессе определена важность использования солей карбоновых кислот и выбора растворителя для бимолекулярной реакции. Кроме того, особое значение имеет использование краун-эфиров в качестве катализаторов в методе межфазного катализа получения сложных эфиров карбоновых кислот с низкой активностью с высоким выходом продуктов.

В последние годы в нашей стране в целях обеспечения взаимосвязи образования и индустриализации, поддержки фармацевтической промышленности, а также производства импортозамещающей продукции для химических производств и аграрного сектора на основе местного сырья природного и синтетического достигнуты важные результаты в получении новых органических веществ. В стратегии развития нового Узбекистана для дальнейшего развития Республики Узбекистан поставлены задачи «увеличить объем производства промышленной продукции в 1,4 раза путем продолжения промышленной политики, направленной на обеспечение устойчивости национальной экономики и увеличения доли промышленности в валовом внутреннем продукте». В связи с этим важное значение имеют исследования направленные на применение новых катализаторов определяющих направление реакций для получения сложных эфиров декановой, миристиновой, пальмитиновой, стеариновой кислот, галогензамещенные уксусные кислоты и их солей и определить методы увеличения продуктов реакции, получение соединений, проявляющих активность в отношении вредных микроорганизмов.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан от 10 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годах», Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 12 августа 2020 года №ПП-4805 «О мерах по повышению качества непрерывного образования и результативности науки по направлениям «химия» и «биология», от 6 ноября 2020 года №ПП-4884 «О

